

O'quv dasturi pasporti

O'quv dasturi uzliksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lif muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 14-avgustdagisi № UMO-139-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030-yilgacha.

Ta'lif muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra / bo'lim	Travmatologiya va ortopediya
O'quv dasturi nomi	Travmatologiya va ortopediya
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish
O'quv dasturi muallifi (mualliflari)	O'quv dasturi mualliflari: M. E. Irismetov, X. M. Karimov, A. R. Xoshimov, R. K. Qobilov, B. U. Xolmatov
Siklning umumiyo soati	864 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
t.f.d., professor Irismetov M.E.	t.f.n., dotsent Karimov X.M.	t.f.n., assistent Xoshimov A.R.	Qobilov R.K	PhD. Xolmatov B.U.

Maqsad	Ta'lif oluvchilar uchun travmatologiya va ortopediya sohasida jahon ilm-fani va amaliyotining so'nggi yutuqlari asosida yangi professional bilimlar va ko'nikmalarni egallash imkoniyatini yaratishdir. Dastur tinglovchilarga sohadagi nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, eng dolzarb tibbiy masalalar va sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning zamonaviy uslublari bilan tanishtirish, shuningdek, mustaqil ravishda professional faoliyat yuritish uchun zarur amaliy ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.
---------------	---

Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingen	Poliklinika, qabul bo'limi (travm. punkt), TTB, KTMP, ShTYIAM va boshqa statsionar shifoxonalarining travmatolog – ortopedlari, neyroxirurg, xirurglari, reanimatolog – anesteziolog, rentgenolog, onkolog va sport
---	---

	vrachlari
Sikl vazifalari	<p>Travmatologik va ortopedik bemorlarni davolash bo'yicha so'nggi yangilangan standartlar asosida tashxislash usullari hamda davolashning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>Travmatologik va ortopedik bemorlarni zamonaviy standartlar asosida davolash jarayonini olib borish bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.</p> <p>Statsionar va ambulator sharoitda kasalliklarning differensial tashxisi hamda profilaktikasi bo'yicha bilimlarni mukammallashtirish.</p>
Sikl tarkibi	<p>Mushak-skelet tizimining anatomik tuzilishi, biomexanikasi va funksional afzalliklarini chuqr bilishi, bu bilimlarni klinik tashxis va davolash jarayonida qo'llay olishi.</p> <p>Bemor umumiyligi va klinik holatini chuqr tahlil qilib, diagnostika va davolash protseduralarini milliy va xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishi.</p> <p>O'z ixtisosligi doirasida kasalliklarni aniqlash va belgilangan protokollar asosida davolash usullarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi.</p> <p>Amaliy diagnostika va davolash usullarini real klinik sharoitlarda tezkor va samarali qo'llashi.</p> <p>Shaxsiy ish jarayonini samarali rejalahtirish, klinik ko'rsatkichlarni tahlil qilish va natijalarni monitoring qilishni.</p> <p>Tibbiy etika va professional deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish hamda insonparvarlik prinsiplarini amalga oshirishni.</p> <p>Zamonaviy tibbiyot uskunalarini, innovatsion metodlari va yangi texnologiyalarni tezda o'zlashtirib, amaliyotga tatbiq etish qobiliyati.</p> <p>Bemorga nisbatan hurmat, muloqot va maslahat berish san'atini puxta o'zlashtirib, ularning ehtiyojlarini aniqlash va to'g'ri tushunishni.</p>

O‘qish bazalari

1. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi.

